



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 2

HUQUQIY ONG VA MADANIYAT – QONUN USTUVORLIGINING POYDEVORI

Hayitmurodov Musulmon Sunnat o'g'li, Buxoro Davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi

(Huquq talimi) 1-kurs magistranti

+998950365356

musulmonhhh99@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatning mazmun-mohiyati hamda ularning jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Muallif tomonidan fuqarolarning huquqiy bilim darajasi, qonunlarga hurmat va ularga amal qilish madaniyati jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda ta'lim tizimi, oila va ommaviy axborot vositalarining roli yoritilib, mavjud muammolar va ularning yechimlari yuzasidan takliflar ilgari surilgan. Maqola jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashda huquqiy tarbiyaning ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Tayanch so'zlar: huquqiy madaniyat, qonun ustuvorligi, ijtimoiy ong, huquqiy ta'lim islohoti, huquqiy tarbiya, amaliy ko'nikma, adolatli turmush tarzi.

LEGAL AWARENESS AND CULTURE – THE FOUNDATION OF THE PRIORITY OF LAW

Hayitmurodov Musulmon Sunnat o'g'li, Bukhara State Pedagogical Institute

1st year Master's student in

Teaching social and humanitarian

sciences (Legal Education)

+998950365356

musulmonhhh99@gmail.com

Annotation. This article analyzes the essence of legal consciousness and legal culture and their role in ensuring the rule of law in society. The author justifies that the level of legal knowledge of citizens, respect for laws and the culture of following them is an important factor in the stability and development of society. Also, the role of the educational system, family and mass media in the formation of legal consciousness and culture was highlighted, and suggestions were put forward regarding existing problems and their solutions. The article aims to reveal the importance of legal education in strengthening the rule of law in society.

Key words: legal culture, rule of law, social consciousness, legal education reform, legal education, practical skills, fair lifestyle.

ПРАВОВОЕ СОЗНАНИЕ И КУЛЬТУРА – ОСНОВА ПРАВОПОРЯДКА

Hayitmurodov Musulmon Sunnat o'g'li, Бухарский государственный педагогический

институт магистрант 1 курса направления

Преподавание социально-гуманитарных

наук (правовое образование)

+998950365356

musulmonhhh99@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется сущность правосознания и правовой культуры и их роль в обеспечении верховенства права в обществе. Автор обосновывает, что уровень правовых знаний граждан, уважения к законам и культуры их следования является важным фактором стабильности и развития общества. Также была подчеркнута роль системы образования, семьи и средств массовой информации в формировании правового сознания и культуры, а также высказаны предложения относительно существующих проблем и путей их решения. Цель статьи - раскрыть значение юридического образования в укреплении законности в обществе.

Ключевые слова: правовая культура, правопорядок, общественное сознание, реформа юридического образования, юридическое образование, практические навыки, справедливый образ жизни.

Shiddat bilan kechayotgan XXI asr davlatlar va fuqarolar oldiga bir qator majburiyatlar yuklayotgani hammamizga ma'lum. Shunday majburiyatlardan bittasi albatta aholining huquqiy ongi va

huquqiy madaniyatini yuksaltirishdir. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim sharti hisoblanadi.

Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy davlat qurishning zaruriy sharti – bu qonunlarning so'zsiz bajarilishidir. Qonunlarning bir xilda va so'zsiz bajarilishi har bir shaxsning o'z vazifasiga munosabati va zimmasidagi mas'uliyatni his qilishiga bog'liqdir [1] Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasi sanaladi.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan buyon aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” qabul qilingan edi. Unda aholi huquqiy madaniyat darajasining oshirilishi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati xodimlarining bilimdonligiga ko'p jihatdan bog'liqligi, huquqiy madaniyatning ilmiy asoslarini tadqiq etishni rag'batlantirish, ijtimoiy – huquqiy tadqiqotlarni tashkil etish [2] va boshqa masalalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari 2017-yil 7- fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Prezident farmoni, 2017-yil 7- sentabrda qabul qilingan “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida”gi qonun, 2018-yil 13-apreldagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi Prezident farmoni, 2019-yil 9-yanvardag “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi Prezident farmoni va boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligini ko'rish mumkin.[3]

Xalqning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali nimalarga erishish mumkin? - avvalombor shu savolga to'xtalib o'tadigan bo'lsak.

Xalqning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish juda muhim ijtimoiy jarayon bo'lib, u orqali bir qator muhim natijalarga erishish mumkin:

- qonunlarga hurmat kuchayadi. Odamlar o'z huquq va majburiyatlarini yaxshi bilgan sari, qonunlarga ongli ravishda rioya qiladi. Bu esa jamiyatda tartib-intizomni mustahkamlaydi.
- huquqbuzarliklar kamayadi. Huquqiy bilimga ega bo'lgan fuqarolar jinoyat yoki boshqa noqonuniy harakatlarning oqibatlarini tushunadi va bunday ishlarni sodir etishdan tiyiladi.
- fuqarolarning faolligi oshadi. Huquqiy madaniyati yuqori bo'lgan insonlar jamiyat hayotida faol ishtirok etadi, o'z fikrini erkin bildiradi va davlat boshqaruvida bevosita yoki bilvosita qatnashadi.
- adolat va qonun ustuvorligi ta'minlanadi. Har bir fuqaro o'z huquqlarini himoya qila oladi, boshqalarning huquqlarini ham hurmat qiladi. Natijada jamiyatda adolat muhiti shakllanadi.
- korrupsiya va suiste'molliklar kamayadi. Huquqiy ong yuqori bo'lgan jamiyatda noqonuniy harakatlarga nisbatan murosasizlik kuchli bo'ladi.

2019-yilda aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yaxshilash maqsadida “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi Prezident Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda: jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish uchun qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi, [4] deya ta'kidlab o'tilgan. Jamiyatda qonunga hurmatni kuchaytirish, noqonuniy holatlarga murosasiz munosabatni shakllantirish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilanmoqda. Bu yo'nalishda ancha ishlar qilinayotgan bo'lsa ham, ayrim kamchiliklar haliyam topilmoqda. Ularni ochiq aytish va ularni tizimli hal qilish juda muhim, chunki aynan shu orqali mazkur soha yanada takomillashadi.

*Birinchi*dan, huquqiy targ'ibotning sifati hamma joyda bir xil emas. Ba'zi hududlarda bu ishlar faqat “qog'ozda” yoki rasmiy tadbirlar bilan cheklanib qoladi. Amalda esa odamlar qonun mazmunini chuqur tushunib yetmaydi.

*Ikkinchi*dan, oddiy aholiga tushunarli til yetishmaydi. Qonunlar ko'pincha murakkab huquqiy tilda yozilgan bo'ladi, bu esa ularni keng jamoatchilik uchun qiyin qiladi. Natijada odamlar o'z huquqlarini bilmay qoladi.

*Uchinchi*dan, huquqiy bilimlar amaliyot bilan bog'lanmaydi. Maktab yoki OTMlarda o'qitilayotgan huquqiy fanlar ko'proq nazariy bo'lib, kundalik hayotda qanday qo'llash o'rgatilishi yetarli darajada emas.

To'rtinchidan, fuqarolarning faolligi hali past. Ko'pchilik o'z huquqlarini talab qilishdan cho'chidi yoki “baribir foydasi yo‘q” degan fikrda bo‘ladi.

Beshinchidan, ba’zi hollarda qonun ustuvorligi to‘liq ta’minlanmaydi. Agar odamlar amalda adolatsizlikni ko‘rsa, bu huquqiy ong va madaniyatga salbiy ta’sir qiladi.

Oltinchidan, korrupsiya va byurokratiya muammolari hali ham mavjud. Bu esa fuqarolarda qonunga ishonchni pasaytiradi. Asosiy muammo faqat qonunlar chiqarish emas, balki ularni hayotga to‘liq va adolatli tatbiq etishdadir. Agar shu jihatlar yaxshilansa, huquqiy madaniyat ham tezroq rivojlanadi.

Bu muammolarni kamaytirish uchun bizga oddiy targ‘ibot yetmaydi – tizimli, aniq va puxta o‘ylangan rejalar zarur. Mazkur muammolarni hal qilish uchun quyidagi yechimlar bir qator ijobiy natija berishi mumkin:

- yoshlarga quruq ma’ruza o‘rniga foydali usullar jumladan real hayotiy keysar, sud jarayonlaridan lavhalar, roliklar, podkastlar berib boorish orqali ularni huquqiy savodxonligini oshirish. Ayniqsa yoshlar uchun qisqa video formatlar samaraliroq hisoblanadi.
- har bir muhim qonun bo‘yicha “oddiy tilda izoh” versiyalari bo‘lishi kerak. 1-2 sahifalik qisqa qo‘llanmalar, infografika va “savol-javob” shakli odamlar uchun ancha tushunarli bo‘ladi.
- mahallalarda yoki onlayn platformalarda bepul konsultatsiya xizmatlari tashkil etilsa nur ustiga a’lo nur bo‘lardi. Fuqarolar muammoga duch kelganda tez yordam olsa, ularning huquqiy ongi ham oshadi. Maktab va OTMLlarda talaba yoshlarni huquqiy faolligini oshirish uchun ko‘proq amaliy darslar tashkil qilish orqali ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish joiz.
- xizmat ko‘rsatish sohalarida inson omili kamaysa, korrupsiya ham kamayadi. Onlayn ariza, navbat, to‘lov - hammasi shaffof bo‘lishi kerak. Har bir jarayonni kuzatish imkoni bo‘lsa, fuqarolarning ijtimoiy hayotga, hukumat tomonidan amalga oshiriladigan islohotlarga mas’uliyatsiz munosabatda bo‘lmasdan siyosiy hayotda faolligi yanayam ortadi.

Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda ta’lim tizimi, oila va ommaviy axborot vositalarining roli haqida gapiradigan bo‘lsak avallambor to‘xtalib o‘tishimiz joiz bo‘lgan birinchi muammo bu yoshlarning huquqiy ta’lim tizimini zamon talablarida shakllantirish. Ta’lim tizimi huquqiy ongni shakllantirishning eng asosiy va tizimli vositasidir. Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan jarayonda o‘quvchilarga qonunlar, huquq va majburiyatlar, fuqarolik burchi haqida bilim beriladi. Ta’lim muassasalari nafaqat nazariy bilim beradi, balki amaliy ko‘nikmalar masalan, qonuniy yo‘l bilan muammolarni hal qilish, o‘z huquqlarini himoya qilish madaniyatini ham shakllantiradi.

Oila – shaxs tarbiyasining birlamchi muhitidir. Bola ilk bor aynan oilada ijtimoiy normalar, odo-axloq qoidalari va adolat tushunchasi bilan tanishadi. Agar oilada qonunlarga hurmat, halollik, mas’uliyat kabi qadriyatlar ustuvor bo‘lsa, bu bola ongida mustahkam o‘rnashadi. Aksincha, qonunbuzarlik yoki beparvolik muhitida ulg‘aygan bola huquqiy normalarni mensimasligi mumkin va kelajakda undan tug‘iladigan farzandlar ham qonunlarga nisbatan ijobiy pozitsiyada bo‘lmasligi aniq. Shu sababli otalarning shaxsiy namunasi huquqiy madaniyatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

OAV (televidekiye, radio, internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar) keng auditoriyaga tez va samarali ta’sir ko‘rsatadi. Ular orqali aholiga yangi qonunlar, huquqiy yangiliklar, jamiyatdagi muhim voqealar yetkaziladi. Huquqiy mavzudagi ko‘rsatuvlar, maqolalar va ijtimoiy roliklar fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshiradi. Shu bilan birga, OAV noto‘g‘ri yoki bir tomonlama axborot tarqatmasligi, balki haqqoniy va ishonchli ma’lumot berishi muhimdir.

Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish uzviy va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, unda ta’lim tizimi bilim va ko‘nikma beradi, oila asosiy qadriyatlarni singdiradi, ommaviy axborot vositalari esa keng jamoatchilikni xabardor qiladi va ta’sir doirasini kengaytiradi. Ushbu uch omil o‘zaro hamkorlikda ishlaganda jamiyatda qonun ustuvorligi va huquqiy madaniyat yuqori darajada shakllanadi.

Huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishda ta’lim tizimi, oila va OAV muhim rol o‘ynasa-da, ularning faoliyatida ayrim kamchiliklar mavjud. Ularni tahlil qilish va kelajakda shunga o‘xshash muammolarga duch kelmasligimiz uchun mazkur muammolarga yechimlar taklif etish juda muhim.

Ta’lim tizimidagi kamchiliklardan eng asosiylari bular huquqiy fanlar ko‘pincha nazariy yo‘naltirilganligi, amaliy mashg‘ulotlar yetarli emas; o‘quvchilar qonunlarni yodlaydi, lekin ularni real hayotda qo‘llashni bilmaydi; ba’zi o‘qituvchilarning huquqiy savodxonligi yoki metodikasi yetarli darajada emas. Mazkur muammolarni oldini olish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz darkor.

Avvalombor, Interaktiv metodlarni (debat, sud jarayonlari modeli, keys-stadiyalar) keng joriy etish; amaliy huquqiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni ko'paytirish; o'qituvchilar malakasini oshirish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy qilish.

Ba'zi oilalarda huquqiy tarbiyaga yetarli e'tibor berilmaydi. Ota-onalar o'zlari ham huquqiy bilimga ega emas yoki qonunlarga beparvo bo'lishi mumkin. Bolaga noto'g'ri “namuna” ko'rsatilishi (masalan, qoidabuzarlikni oddiy hol deb qabul qilish) kelajakda yana bitta qonunbuzarlikni amalga oshiruvchi qoida buzarning ko'payishiga xizmat qilishi mumkin. shunday muammolarning oldini olish uchun bir qatorni tizimli ishlar amalga oshirilishi kerak. Jumladan, Ota-onalar uchun huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan seminar va treninglar tashkil etish; Oilada bolaga mas'uliyat, halollik va qonunlarga hurmat ruhini singdirish; Ota-onaning shaxsiy namunasi orqali to'g'ri xulq-atvorni ko'rsatish orqali mazkur muammolarni ijobiy hal qilishimiz mumkin.

OAV da ba'zan noto'g'ri yoki tekshirilmagan axborot tarqatilishi, huquqiy mavzular yetarlicha sodda va tushunarli tarzda yoritilmasligi, Sensatsiya ortidan quvish natijasida huquqiy ongga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoli bularning barchasi bugungi kunda hayotimizda tez-tez uchrab turgan kamchiliklardan hisoblanadi. Mazkur muammolarni ijobiy hal qilish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak. OAVda huquqiy mavzularni professional mutaxassislar ishtirokida yoritish, oddiy va tushunarli tilda huquqiy ko'rsatuvlar, maqolalar sonini oshirish, axborotning ishonchligini qat'iy nazorat qilish va media savodxonlikni rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Kamchiliklar asosan bilimning amaliyotdan uzilib qolishi, e'tibor yetishmasligi va noto'g'ri axborot bilan bog'liq. Yechim esa – ta'lim, oila va OAV o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va har bir bo'g'inda mas'uliyatni oshirishdan iborat. Shunda jamiyatda haqiqiy huquqiy madaniyat shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyat jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashning eng muhim poydevori hisoblanadi. Fuqarolarning huquqiy bilim darajasi, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi va ularga ongli ravishda amal qilishi jamiyat barqarorligi hamda taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardandir. Maqolada ta'kidlanganidek, huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda ta'lim tizimi, oila va ommaviy axborot vositalari o'zaro uzviy hamkorlikda faoliyat yuritishi zarur. Shu bilan birga, mavjud kamchiliklar – huquqiy ta'limning yetarli darajada amaliyotga yo'naltirilmaganligi, aholining huquqiy savodxonligi pastligi hamda axborot yetkazishdagi muammolar – ushbu sohada hali amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar mavjudligini ko'rsatadi.

Taklif etilgan yechimlar, jumladan, interaktiv ta'lim usullarini joriy etish, huquqiy targ'ibotni sodda va tushunarli shaklda olib borish, fuqarolarning huquqiy faolligini oshirish hamda raqamli va shaffof tizimlarni kengaytirish orqali mazkur muammolarni samarali bartaraf etish mumkin.

Shunday ekan, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan izchil va tizimli chora-tadbirlar jamiyatda adolat, qonuniylik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Huquqiy yetuklik - barkamollikka eltadi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.-T.: Adolat 2011, 7-b
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 29.08.1997-yil 466-I son qarori bilan tasdiqlangan.
3. Aholining huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yanada yuksaltirishning huquqiy asoslari. E.Qodirov //Aholining huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquqiy ongni oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli mavzusida tashkil etilgan davra suhbat materiallari. - T.:Toshkent tezkor bosmaxonasi, 2015, 20-b
4. PF-5618. lex.uz
5. Xasanov. A (2018) “Konstitutsiya va inson huquqlari”
6. Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat va mafkura. – Toshkent: 1996. – B. 67
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
8. www.lex.uz

Hamroyev Saidjon Sanoyevich, Abdullayeva Yulduz Nabiyeвна, Jamiyatda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy standartlari	284
Erkinov Ozodbek Aminovich, Huquqiy va ijtimoiy davlatning nazariy asoslari hamda uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	289
Hayitmurodov Musulmon Sunnat o'g'li, Huquqiy ong va madaniyat – qonun ustuvorligining poydevori	295
Yo'ldosheva Odinaxon Dilmurodjon qizi, O'zbekistonda mehnat huquqining buzilishi: Holat va istiqbol	299
Temirova Asila Sodiqovna, Zamonaviy fan taraqqiyotida huquq ta'limini rivojlantirish tendensiyalari	302
Ergashova Nargiza, Jamolova Tamara Normatovna, Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi	307
Sulaymonbekov Suhaylbek Sobirbek o'g'li, Professional ta'lim oluvchilarning huquqiy kompetensiyalarini shakllantirishda huquqiy targ'ibotni tashkil etishning pedagogik mexanizmlari (iiv buxoro akademik litseyi misolida)	311
Hikmatov Sunnatillo Hafiz o'g'li, Yoshlarda media immunitetni shakllantirishning nazariy va ilmiy asoslari	318
Каримов Джамшид Тулкин Угли, Идеи гуманизма и нравственности в наследии Абдурахмона Джами	322
O'rinov O'tkirbek Nodir o'g'li, Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini baholashda innovatsion mezonlar va indikatorlar	326

Aniq va tabiiy fanlar

To'xtayeva Ferangis Furqat qizi, Muhandislik grafikasi fanida elektron o'quv qo'llanma yaratishda 3d geogebra dan foydalanish	330
Choriyeva Nilufar Akram qizi, Fizik tafakkurni rivojlantirishda multimedia vositalaridan foydalanish usullari	334
Dilnoza Irkinovna Dadaboeva, Kelajak muhandislar uchun cad va 3d vizualizatsiyalaridan foydalangan professional grafik tayyorlashning innovatsion usulini ishlab chiqish va tajribada sinab ko'rish	340
Hasanov Behzod Normurot o'g'li, Hamroyeva Dilnoza Tohir qizi, Informatika ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish bo'yicha xorijiy va milliy pedagogik tajribalar tahlil	349
Jo'rayev Ihom Is'hoqovich, Mobil texnologiyalar tarixi, rivojlanishi va istiqbollari	354
Rakhmat Sindarov, Research of the methodology for the development and implementation of a teaching and methodological complex for graphic training	360
To'xtayeva Ferangis Furqat qizi, Elektron o'quv qo'llanmalar yaratishda Fliktop platformasidan foydalanishning metodik asoslari	366
Ergashov Mansur Yarashovich, Raxmatilloeva Shahzoda Hikmat qizi, “Azotning kislorodli birikmalari” mavzusini o'qitishda eksperimental yondashuv asosida o'quvchilarning kreativ kompetensiyasini shakllantirish	370